

QO‘G‘IRCHOQ TEATRINING BOLALARNI RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI

Ramuza Qazaqbaeva Perdebaevna

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali,

“Rejissyorlik san‘ati” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bolalar teatr-o‘yin faoliyati turlari xilma-xil va har biri o‘zicha qiziqarli. Bolalar maqtanchoq xo‘rozchani yoki boshqa jonivorlarni o‘ynash va o‘zini artis sifatida his qilishga qiziqadi. Teatr faoliyati – bola nutqini rivojlantirish uchun bitmas-tuganmas xazina. She‘riy asarlarni “o‘ynash”dan ish boshlab, sahnalarga o‘tiladi, ishning yuqori cho‘qqisi drama (sahna) lashtirish hisoblanadi, bunda bolalar qahramonning xarakterini ochmib bergani holda savodli gapirishi lozim. So‘zni sahna harakatlari bilan birlashtirish murakkab, ayniqsa tortinchoq bolalar uchun juda murakkab ish sanaladi. Tarbiyachi uchun bevosita ta‘limiy faoliyatni amalga oshirish, nutqni rivojlantirish muhim, sahnalar kichik spektakllarga o‘xshashi kerak. Bunda tarbiyachi bosh rolni o‘ynaydi, bolalar esa artist bo‘lishga o‘rganadi. Bu jarayonda qo‘g‘irchoqlar, ayiqchalar jonlanadi.

Kalit so‘zlar: Bolalar teatri, o‘yinchoq, tomoshabin, tomosha, nutq, tinglovchi, ertaklar, artist, mashq, bolalar.

Bolalar o‘ynaydi, niqoblar kiyadi, turli jonivorlarga aylanadi, o‘rmonda bo‘ladi, bizni stol-stullar emas, balki ertaklar mamlakati o‘rab turadi. Tomoshaga tayyorgarlik jarayonida ham bolalarning o‘zi qatnashadi. Bunda tomoshaning mazmuni, bayram muhitini tashkil qilish masalalari muhokama qilinadi, rollar taqsimlanadi. Bolalar ishtirokchi (artist) bo‘lganida ularning faol nutqi namoyon bo‘ladi va mashq qildiriladi. Hamma vaqt va hamma sharoitda yaxshi gapirish uchun nafaqat gapirishni bilish, balki omma oldida, notanish tinglovchilardan uyalmasdan gapira olishga odatlanish talab qilinadi. Boy ichki dunyo egalari, nutqni mukammal egallagan, ammo shu qadar uyatchan, o‘ziga ishonmaydigan, omma oldida nutq so‘zlashga odatlanmagan kishilar uchraydiki, ikki-uchta notanish kishining borligi ularning lom-mim deyolmay qolishiga sabab bo‘ladi. Bunga qarshi kurashish, bolalarda o‘zi va o‘z kuchiga ishonchni rivojlantirish zarur. Omma oldida nutq so‘zlash odatini insonda kichik yshdan notanish auditoriya oldida nutq so‘zlashga o‘rgatish yo‘li bilan shakllantirish mumkin. Buni teatrlashtirilgan faoliyatda ajoyib tarzda amalga oshirish mumkin. Bola MTTda umum (ko‘pchilikning) ishida qatnashayotganini anglab yetishi, ularning xatti-harakati hammada qiziqiy uyg‘otayotgani, bundan boshqalar manfaatdor ekani, ular hammani qiziqtirishi mumkin va kerak bo‘lgan harakatlarni amalga oshirayotganini tushunib yetishi juda muhim. Kichik sahnalarni o‘ynab, boshqa qiyofalarga kirib, bolalar nutqini sayqallashtiradi, ularda o‘ziga ishonch, topqirlik

rivojlanadi, ijod uchun imkoniyatlar ochiladi. Zamonaviy olamda, ezgu hislar va hamdardlik, hamkechinmalikka kam o'rin qolayotgan bir davrda, aynan teatrlashtirilgan faoliyat maktabga ta'lim yoshidagi bola tarbiyasi uchun juda zarur, zero u bolada ezgu hislar uyg'otadi va yorug'liq urug'larini shakllantiradi, pedagoglarga bolaning emotsional sohasiga murojaat qilish, "hiszlarni tarbiyalash" bilan shug'ullanish imkonini beradi. Aynan teatrlashtirilgan faoliyat, san'atning amaliy turi sifatida, ham tarbiya, ham ta'lim uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi. Aynan u bolani to'laqonli qiziqtirishi, uni yanada jur'yatli, faol qila oladi. Teatrlashtirilgan faoliyat bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola aqlan, jismonan va, eng muhimi, emotsional rivojlanadi. Pedagog uchun teatrlashtirilgan faoliyat zarur va u bilan imkon qadar erta, ikkinchi kichik guruhdan boshlab shug'ullanish kerak, shunda tayyorlov guruhiga kelib o'zimiz kutgan natijaga erishamiz. Qo'g'irchoq teatrida xatti-harakat, qisqa matn asosiy o'rinni egallaydi. Qo'g'irchoq teatrining dunyoda tanilgan quyidagi turlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: bular - qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'lqopli qo'g'irchoqlar (perchatochno'e), ip bilan boshqariladigan (marionetkalar), soyasi tushadigan (tenevoy, trostli, planshetli, ochiq usulda boshqariladigan va niqob qo'g'irchoq tomoshalari). Qo'g'irchoq teatrining muhim tarixiy hususiyatlaridan biri shuki, u Osiyo, yevropada ham to XX asrgacha asosan an'anaviy shakllarda yashab kelgan. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya - bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofnı obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she'ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, kattakichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlariga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirleydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'oz, bo'r, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri -boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarda birbiriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishiga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilmaxilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilmaxilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an'analarimizni singdirishda, ularga shu aziz Vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofdagi bo'layotgan voqea hodisalarni, o'zini odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab avaylash, unga mehr uyg'otishda qo'g'irchoq teatrlarini sahnalashtirish ahamiyati kattadir. Chunki sahnalashtirishda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko'rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar ertaklarni sahnalashtirishini ko'rganlaridan so'ng, qahramonlarning harakati, axloqi, odobini birgalikda muhokama qilish, bola qalbida ezgulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish to'yg'usini tarbiyalaydi. Bolalar bilan birgalikda ertaklarni sahnalashtirish orqali ertak qahramonlarining ("Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat") o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, ularga mos xatti-harakatlarni ijroda qanday aks ettirish kerakligi haqida fikrlanadi, sahna nutqini (ifodali, aniq talaffuz), sahnada harakat erkinligi, so'z va harakat uyg'unligi tarbiyalanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning bolalarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidani, ertak matni she'r matnidani, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidani tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda tarbiyachidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. O'zbekistonda Bolalar teatri ilk bor 1928-yilda Toshkentda

(Rus yosh tomoshabinlar teatri) tashkil topdi. Shu jamoa qoshida dastlab o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri, 1929-yilda teatr studiyasi yuzaga keldi. Studiyani tashkil etishda S. Etyen, N. Eshmuhamedov va A. Ismoilovlarning xizmati katta. 1930-yil shular tashabbusi bilan studiya professional Bolalar teatri ga aylantirildi. 1930—40 yillarda Toshkent, Namangan, Andijon, Qo‘qon, Farg‘ona, Urganch, To‘rtko‘l va boshqa shaharlarda Bolalar teatri lari samarali ish olib bordilar va diqqatga sazovor spektakllar qo‘ydilar: "Tohirning xanjari" (E. Hamroyev), "Yoriltosh" (Sh. Sa‘dulla), "Semurg‘" (Zulfiya), "Abdulla Nabiyev" (A. Rahmat) va boshqa shular jumlasidan. 1968-yil Birlashgan Yosh tomoshabinlar teatri Rus yosh tomoshabinlar teatri va Y. Oxunboboyev nomidagi o‘zbek Yosh tomoshabinlar meampura ajratildi. "Mardlar qissasi" (B. Rahmonov), "Amu qahramonlari" (P. Tlegenov), "Qovoqvoy va Chanoqvoy" (P. Mo‘min), "AliVali" (L. Mahmudov), "Chiranma g‘oz —hunaring oz" (H. Nazir), "Masharaboz Ali" (L. Boboxonov), "Sehrli nay" (M. Xalil) va boshqa eng yaxshi spektakllardir.

Respublika davlat qo‘g‘irchoq teatri, Andijon davlat bolalar va yoshlar teatri, Andijon ko‘g‘irchoq teatri, Buxoro qo‘g‘irchoq teatri, Samarqand qo‘g‘irchoq teatri va boshqa teatrlar ishlab turibdi.

Xulosa: Respublika Bolalar teatri ni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda J. Obidov, A. Doniyorov, A. Turdiyev, Y. A‘zamov, A. Ginzburg, N. Ladigin, N. Do‘stxo‘jayev, I. Ahmedov, O. Tolipov, I. Yoqubovlarning hissasi katta. V. Qodirov, B. Nurmuhamedov, M. Hamidova, L. Sa‘dullayev, G. Sa‘dullayeva, M. Yo‘ldosheva va boshqa eng yaxshi bolalar aktyorlaridir. O‘zbekistonda 6 ta qo‘g‘irchoq, 3 ta yosh tomoshabinlar teatri ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqulova, G.E. (2007). Sahna nutqi. Toshkent-2007[1]
2. Xoliqulova, G.E. People's poet of Uzbekistan mukhammad yusuf - singer of the native land and love. International conference[2]
3. Go'zal Erkinovna Xalikulova. Sahna nutqi va jonli til. Muloqot, Toshkent-2022[3]
4. Sayfullaev B, J.Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. Toshkent Fan va texnologiya, 2012[4]
5. Yuldashev.T.I., Ikromov H.I., Muxtarov I.A, M.S.Muxtorova. Teatr va yosh avlod. Toshkent 2012[5]azkurs.org
6. www.yuz.uz[6]